

**MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI.**

*Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti Tarix fani o'qituvchisi  
Muyiddinov Bekali*

**THE SAD FATE OF BUKHARA DURING THE MONGOL INVASION**

**Annotation:** This article is dedicated to the description of the general situation of the city of Bukhara on the eve of the Mongol invasion, as well as the capture of the city of Bukhara, based on scientific sources and a creative scientific analysis of the works of historians.

**Key words:** Nasafi, defense, Karakhitay, invasion, Mongols, mosque, castle, Juzjony, palace, fire, city, O'tror

**ПЕЧАЛЬНАЯ СУДЬБА БУХАРЫ В ПЕРИОД МОНГОЛЬСКОГО  
НАШЕСТВИЯ**

**Аннотация:** Данная статья посвящена описанию общего положения города Бухары накануне монгольского нашествия, а также взятия города Бухары на основе научных источников и творческого научного анализа произведений историки.

**Ключевые слова:** Насафи, оборона, Карахитай, нашествие, монголы, мечеть, замок, Джужоны, дворец, огонь, город, Утрор.

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro shahrining mo'g'ullar bosqini arafasidagi umumiy ahvoli tavsifiga bag'ishlangan hamda Buxoro shahrining bosib olinishi ham ilmiy manbalar asosida va mahalliy tarixchilarning asarlariga asoslangan holda ilmiy tahlil qilinadi.

**Tayanch so'zlar:** Nasafiy, mudofaa, qoraxitoy, bosqin, mo'g'ullar, masjid, qal'a, Juzjoniyy, saroy, yong'in, shahar, O'tror

**Mo'g'ullar bosqini davrida Buxoroning ayanchli taqdiri**

Ikki tarixchi Ibn al-Asir va Juzjoniylarni hikoya qilishicha Chingizxon Buxoroga 1220-yil fevralda yetib keladi, boshqa bir tarixchi Juvayniy esa bu voqeani martda bo'lib o'tganini ta'kidlaydi ammo tepadagi ikki tarixchi keltirgan sanani to'g'ri deb olsak bo'ladi. Bu davrdagi yo'lni Chingizxon bosqini paytida Buxorodagi harbiylar soni turlicha ko'rsatiladi[5;246], Juzjoniyyning ta'kidlashicha 12 ming harbiy, Juvayniyyning ta'kidlashicha 20 ming harbiy, Nasafiyning ta'kidlashicha 30 ming harbiylar shahar mudofaasida bo'lgan. Nasafiyning aytishicha Buxoroning mudofaasiga amiroxur Ixtiyoriddin Qushlu (Nasafiy asarida Keshlixon deb keladi) va Inonchxon (O'g'ul Xojib) rahbar etib tayinlangan edi. Buxoroda bulardan tashqari

amirlardan Hamid Pur (qoraxitoylik bo'lib, Kirmonli Qutlug'xon qo'mondonlaridan Baroq hojibning ukase), Sevinchxon, Lashkarxon va Kuyukxonlar ham bor edi. Ibn al-Asir aytishicha 1220-yil 10-fevral, Juzjoniyning aytishicha 16-fevral edi. Shundan so'ng boy savdogarlardan O'tror fojiasidan so'ng xorazmshoh tomonidan sotilgan kumushlarni topshirish talab qilinadi (shu bilan birga boshqa mollar ham), va nihoyat xalq o'zidagi kiyimdan boshqa barcha narsalarni qoldirib, shaharni tark etish so'raladi ularning mollari mo'g'ullar tomonidan talon-taroj qilinadi, qarshilik ko'rsatib shaharga qolganlar o'ldiriladi[3;158]. Juvayniyning hikoya qilishicha, Chingizxon shaharni egallagandan so'ng, shahar ahlini diniy rasm-rusumlar va bayramlar nishonlanadigan joyga to'plab, o'zini ularning gunohlari uchun yuborilgan xudo ekanligini ta'kidlaydi. Bu voqea haqiqatdan yiroq, agar rostan ham bo'lganida tarixchi Ibn al-Asir o'zining faqihidan eshitgan bo'lar edi. Ikkala tarixchi Juvayniy va Ibn al-Asirning ta'kidlashicha, Chingizxon shahar ahlidan shaharning boy asosiy kishilari va shahar ulug'larning ro'yxatini berishni so'raydi va ulardan tovon puli talab qilinadi. Buxoro shahrining eng katta boy kishilaridan 280 kishini to'playdi Rashiduddin ta'kidlashicha, ulardan 190 kishi buxorolik bo'lib, 90 tasi ajnabiy savdogarlar edi. Shahar talon-taroj qilingandan so'ng, yoqib yuboriladi faqatgina pishiq g'ishtdan qurilgan ba'zi masjid va saroylar saqlanib qoladi. Chingizxon Buxoroni yoqib yuborishi uning rejasida bo'lganligi ehtimoli kam, shahardagi bu yong'in shahar talon-taroj qilinishi arafasida ro'y beradi va uni o'chirishning imkoni bo'lmaydi, binolarning zich joylashganligi tufayli bu odatiy hol edi. Juvayniy va Juzjoniy asarlarida esa quyidagicha fikrlar keladi: Har kuni shaharning ko'zga ko'ringan kishilari Chingizxonning huzuriga kelar va undan topshiriq olar edilar[1;285]. Chingizxon shahardagi mavjud sulton askarlarining hammasini shahar va qal'adan tashqariga chiqarishni istadi. Lekin bu shahar xalqi bajara oladigan ish emas edi chunki sulton askarlari mo'g'ullardan qochib, shahar ichiga berkinib, joy qayg'usida hamma narsani qilib ko'rdilar. Tunda hujumlar uyishtirib, chiqib ketish yo'llarini izladilar ularning bu harakati Chingizxon g'azabiga sabab bo'ldi. Xon shahardagi uylar butunlay o'tda yondirilsin deb buyruq berdi uylar yog'ochlardan qurilgani uchun tez kunda butun boshli shahar yonib kul bo'ldi. Faqat g'ishtdan qurilgan katta masjid bilan bir necha saroygina butun qoldi. Mo'g'ullar Buxoro xalqini qal'adagi mavjud bo'lgan sulton askarlariga qarshi ikkala taraf orasida shiddatli jang boshlandi. Qal'a tashqarisidagilar ichkariga manjaniqlardan tosh, yoylardan o'q yog'dirar, ichkaridagilar esa tashqariga kerosin va neft shishalarini otardilar qisqa bir muddat ichida hammayoq atrofga uchqun sachratib yonayotgan bir tandirga aylandi. Manashu tarzda jang 12 kun davom etadi garchi bu paytda ark himoyasida 400 kishi bo'lgan bo'lsada ular matonat bilan mudofaani ushlab turishadi. Qal'a ichidan bir guruh jangchi tashqariga chiqar, qahramonlarcha kurashib, qal'aga qaytib kirib ketardi[4;253]. Ayniqsa, jasurlikni erkak sherning qo'lidan tortib olgan Ko'kxon bir hamla qilganda bir necha dushmani

birdaniga o'ldirar va hujum qilganlarni orqaga chekinishga majbur qilardi. Lekin bu hol uzoq cho'zilmadi ularning ishlari borgan sari og'irlashdi, g'alabaga olib boruvchi najot yo'li qolmadi. Oxirida olloh va uning yaratilari qarshisida shahid bo'lib narigi dunyoga ketdilar. Shaharga kirib kelgan Chingizxon shahar go'zalligidan hayratda qolgan edi. Ayniqsa, Somoniy tarafidan muhtasham bezaklar bilan qurdirilgan jome masjidining ko'rinishi Chingizxonni hayratda qoldirgan edi.

San'ati, Ilm-ma'rifati, nozik tabiati va axloqi go'zal bo'lgan Buxoro aholisi baxtsiz va masqara etildi, buyuk bir el shamolday tarqab ketdi bu qochoqlardan biri Xurosonga kelib, o'z vatanining ahvoli haqida keng shuhrat qozongan quyidagi baytni aytgan edi: "Omadad va kundand va so'xtand va kushtand va burdand va raftand" (Keldilar va yemirdilar, yondirdilar va o'ldirdilar, taladilar va ketdilar.)(6;174]. Faqat O'rta Osiyogina emas, balki butun islom olamining savdo va hunarmandchilik hamda eng yirik madaniy markaz, musulmon sharqining ko'plab olimlarini yetkazgan Buxoro shahri yo'q qilinib yo'lovchi ko'z o'ngida vayrona va xarobalar uyumi bo'lib qolgan edi. Buxoroliklarning o'limdan qutulib qolganlari vayron bo'lmagan o'zga shahar va qishloqlarga tarqab ketdilar. Mo'g'ullar Buxoroni bosib olganlaridan so'ng Xorazmshoh Muhammad Xurosonning Balx viloyatidan chiqib Iroqqa qarab yo'l olayotgan edi egallanganlik xabarini eshitib qarshilik ko'rsatishga bo'lgan qarori va irodasining qolganini ham yo'qotdi. Chingizxon Samarqand fathiga qadar Buxoro voliyligiga Tusha Basqoqni tayinlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. T.: Mumtoz so'z, 2015, 254-b
2. Абу Абдуллоҳ Шоший. Мўғул босқини ёхуд Мусулмонларнинг қонли кечмиши, 2008, 369-b
3. Ozod Masharipov. Xorazmnoma (2-kitob). X.: Xorazm. 2007, 420-b
4. Halim To'raev. Buxoro tarixi. B.: Durdon, 2020, 321-b
5. Ziyo Bunyatov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. T.: G'afur G'ulom, 1998, 256-b
6. Xerman Vamberi. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. T.: G'afur G'ulom, 1990, 460-b
7. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
8. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
9. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.

10. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
11. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.

